IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

“BOSHLANG`ICH SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O`QITISH VA UNING AHAMIYATI”

[1]Artikova Nargiz Shuxratovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang’ich ta’lim nazariyasi
kafedrasi o’qituvchisi
e-mail: nargizartikova1982@gmail.com
[2]Choriyeva O`g’iloy O`rol qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha va boshlang’ich
ta’limda xorijiy til” yo`nalishi talabasi
e-mail: choriyevsiddiq258@gmail.com

Anonatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda xorijit tillarni o’qitish va uning muhim xususiyatlari haqida gap ketkan.

Kalit so’zlar: Sinchiklab o’qib chiqish,Zamonaviy me’tod usullardan foydalanib dars o’tish,Talafuzni o’stirish.

Barchamizga ma’lum bolganidek xorijiy tillarni o’rganish zamon ta’labi bo’lib bormoqda va bu talab nafaqat yuqori sinf o’quvchilarini balki boshlang’ich sinf o’quvchilarini ham chetlab o’tmasdan qolmadi.Shu sababliham maktabda chet tili o’qitishda o’qish malakalarini hosil qilish amaliy maqsadlaridan biri hisoblanadi.O’qish malakalrining darajasi o’quvchini chet tilida o’qishni nutq faoliyatining turi sifatida qo’llash bilan o’lchanadi.Shunga ko’ra o’qish jarayonidagi situatsiya turlicha bo’lishi mumkin.Matindan ma’lumot olish uchun o’qish,Matindan ma’lumot olish bilan birgalikda o’qib o’rganayotgan yangi informatsiyalarini boshqalrgaham uzata bilish yanikim o’rgata olish kabilardi

Darhaqiqat, bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida xorijiy tillar fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PK-1875-sonli qarorini tizimli amalga oshirish maqsadida boshlang‘ich sinflarda xorijiy tilni o‘quvchilarga o‘rgatishdan maqsad ularning shu tilda so‘zlash, yozish, tinglab va o‘qib tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati, bilim olishga qiziqishi, faollik, mustaqillik, mahnatsevarlik, qiziquvchanlikni uyg‘otishga qaratiladiBolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatini muvaffaqiyatli o‘stirish kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilarda chet tili orqali mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ham ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo‘llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Uzluksiz ta’lim tizimining hamma bo‘g‘inlarida ham o‘qituvchi dars jarayonida noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin boshlang‘ich sinflarda xorijiy tillarni o‘quvchilarga o‘rgatishda xorijiy til o‘qituvchisi o‘quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o‘rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo‘llash maqsadga muvofiqdirO‘qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni

ishlatishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

– o‘quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;

– yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;

– yangi mavzuni o‘tilgan mavzular bilan izchillikda yetkazish;

– o‘quvchilarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;

– ta’limiy o‘yinlarning izchilligi, xilma-xilligi va qiziqarli bo‘lishiga erishish;

– shu mashg‘ulotning o‘zida yangi bilim asosida shakllangan ko‘nikmalarini tekshirib borish;

– o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

– dars jarayonida o‘quvchilar ishtirokini kuchaytirib boorish.

Demak, shuni ta’kidlash kerakki, kelajagamiz bo‘lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Jumladan, xorijiy tillarni o‘rganish darajalari mazkur maqsadni amalga oshirishda o‘quvchilarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, o‘zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashda to‘siq bo‘ladigan salbiy psixologik holatlarni aniqlash va bartaraf etishda qo‘llanilishi lozim. Demak, boshlang‘ich sinflarda ta’lim oladigan o‘quvchilarning o‘ziga xos bir qator muammolari mavjud. O‘qituvchi ham pedagog, ham psixolog bo‘lib qolmasdan, ular bilan ishlash texnikasini ham bilishi lozim.Ayniqsa,boshlang’ich sinflarda o’quvchilar koplab so’zlarni tog’ri talaffuz qilishga qiynalishadi,shu sababli o’qituvchilar 1-3 sinf o’quvchilari bilan alohida ishlashlari maqsadga muvofiqdir.Bunga qoshimcha ravishda darsda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish dars sifatini oshiradi,hamda o’quvchininhg darsni tezroq o’zlashtirishi uchun yordamdir.Masalan 1-sinf o’quvchilari hali alfabitni toliq o’zlashtirmagan bir paytda unga chet tilini turlixil multfilm,qo’shiq,va rasmlar bilan o’rgatish zamonaviy texnalogiyalarga bolgan ehtiyojimzni oshirmoqda.

Ma’lumki, bugungi kunda ilm-fan, texnika, axborot tizimi shiddatli rivojlanmoqda. O‘qish va o‘qitishda kundalik faoliyatga qatnashish uchun har tomonlama mukammal bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida turli qonunlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda xorijiy til o‘qituvchilarining o‘zlari ham 2013 yil o‘quv yilidan boshlab haftaning juma kunlari – «Xorijiy til o‘qitish metodikasi kuni»da tajribali trenerlar yordamida qo‘shimcha kurslarda ta’lim olmoqdalar. Demak, o‘qituvchilarda xorijiy tillarni zamonaviy talablar asosida o‘qitish uchun kompetensiyalar shakllanmoqda. Bugungi kunda 1-sinfdan boshlab xorijiy tillarni o‘qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarga pedagogik, psixologik talablar qo‘yilmoqda. «O‘qituvchi kimni o‘qitadi, nimani o‘rgatadi va qanday texnologiyalar asosida o‘rgatadi?», degan savol qo‘yiladi. Buning uchun xorijiy til o‘qituvchisi, avvalambor, o‘z ona tilini, uning fonetikasi, grammatikasini mukammal bilgandagina xorijiy tilni qiyoslash orqali

o‘quvchilarga o‘rgata oladi. Uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir o‘qituvchi, jumladan, xorijiy til o‘qituvchilari tilshunoslik bo‘yicha quyidagi zaruriy kompetensiyalarga ega bo‘lishlari lozim: lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatic

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi «Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 124-sonli qarori boshlang‘ich sinflar uchun xorijiy til o‘rgatishning A-1 boshlang‘ich darajasi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida xorijiy tillarni o‘rgatish mazkur DTSga muvofiq quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi: A-1 daraja: boshlang‘ich ta’lim (1–4-sinflar); A-2 daraja: umumiy o‘rta ta’lim (5–9-sinflar). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xorijiy til o‘qituvchilari nimalarni o‘rgatishi, qaysi pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarga eng qulay usullar va uslublar yordamida tilni o‘rgatish kerakligini ko‘rsatish ta’limning innovatsion yo‘nalishlarni tatbiq etishga undaydi. Tilni o‘rgatishda o‘qituvchi innovasiya – pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish, ta’lim tizimida eng ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish ta’lim jarayonida bolaga do‘stona munosabatlarni shaklllantirishga urinish natijasida vujudga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darslarining to‘g‘ri, aniq, izchil samarali bo‘lishi uchun bugungi kunda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi lozim.

Birinchidan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishi, ta’limning tushunarlilik, izchillik va kirishimlilik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, ko‘rgazmalilik, bugungi kunning yangi yondashuvlari, multimedia o‘quvchilarning ongliligini amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga faqatgina xorijiy tilni o‘rgatishgina emas, balki o‘z do‘stlari bilan muloqotni tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Uchinchidan, har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishda interfaol usullardan o‘z o‘rnida foydalanishi zarur. To‘rtinchidan, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini shakllantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning fiziologik rivojlanishini hisobga olib, turli didaktik va rolli o‘yinlar tashkil etishi lozim. Beshinchidan, o‘qituvchi interfaol usullardan – o‘qituvchi va o‘quvchi hamda o‘quvchilararo birgalikdagi harakatdan foydalanishi kerak. Oltinchidan, o‘quvchilar o‘tilgan mavzuni esdan chiqarmasliklarining oldini olish maqsadida takrorlash passiv amalga oshirilmasligi kerak. Boshlang‘ich sinflarda «Dars – muqaddas» kontekstida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kunda muhim, dolzarb hisoblanadi. «Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o‘quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishini ta’minlashdan iborat», deydi o‘zbekistonlik pedagog O‘.K.Tolipov va xorijiy tillarni o‘qitishda muayyan interfaol usullarni tavsiya qiladi. Xorijiy tillarni samarali o‘qitishda turli interfaol usullarni tavsiya etish mumkin. Murakkab mavzularni o‘quvchilar ongiga osongina singdirish uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil metodlari (usullari)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Aqliy hujum», «Klaster», «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash», «BBB» (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), «Venn diagrammasi» metodlari shular jumlasidandir Darslarni mukammal tashkil etish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangidan-yangi usullarini topish, davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Bunda o‘qituvchiga dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli

ko‘rgazmali vositalar ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida optimal foydalanish, zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

XULOSA Demak, «O‘qituvchi chet tili darslarini pedagogik texnologiyalardan foydalanib shunday tashkil etsinki, u samaraga erishsin». Bu esa o‘z navbatida yuqori kompetensiyaga erishgan o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. Bizga ma’lumki, xorijiy tillarni o‘rganishga nisbatan eng qulay bo‘lgan davr 5-8 yosh bo‘lib, bu davrda bola tomonidan o‘z ona tilini o‘rganish tizimi to‘liq o‘rganilgan bo‘lib, xorijiy tilni egallashga ongli ravishda yondashadi, atrofdagilar bilan xorijiy tilda aloqaga kirishish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bolalikda xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni orqali rivojlanadigan layoqatlar bolaning kommunikativ qobiliyatlari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘n yoshdan so‘ng, xorijiy tillarni o‘rganuvchi bolalarning faqat 5 foizigina so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishi mumkin. Shuning uchun ham xorijiy tillarni o‘rganishni erta boshlash samarali hisoblanadi. Ta’lim samaradorligiga erishish uchun bugungi xorijiy til o‘qituvchisiga quyidagi talablar qo‘yiladi: 1. Yuqoridagi sinflarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘qituvchi yetarli bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi, pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniq bilishi. 2. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga xos pedagogik, psixologik individual xususiyatlarni hisobga olib pedagogik texnologiyalarni qo‘llash. 3. O‘qituvchining fazilatlaridan biri u o‘z fanini yuqori saviyada bilishi ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib, natijaga erishish. 4. O‘qituvchi kasbiga oid talablardan biri bolalarni sevishi, ularning hayoti bilan qiziqishi, pedagogik texnologiyani qo‘llash orqali ularning xorijiy tilga nisbatan mehrini uyg‘otishdan iborat bo‘lishi lozim. Demak, xorijiy tilni pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish yoshlarni kelajakda mustaqil fikrga ega barkamol avlod bo‘lib tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etishi lozim.Yuoridagi ma’lumotlardan shuni ko’rsatib turibdiki,xorijiy tilni bilish nafaqat yosh avlod balki o’z karyerasini o’zgartirishni xohlagan har bir fuqaro uchun zarur ekan. Xalqimizda bir maqol bor til bilgan el biladi.Shu sababli u xoh talaba xoh sportchi kim bolishidan qa’tiy nazar o’rganish,izlanish,ilm olish har birimiz uchun farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хамдамов, Ш. Ж. (2022). БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Экономика и образование*, *23*(Maxsus_son), 19-24.
2. Khamdamov, S. J., Akramova, D., Kuranbaeva, S., Shamsieva, U., Musaeva, Y., & Kalandarova, S. (2022). *The role of vascular factors in Parkinson’s disease and vascular parkinsonism* (Doctoral dissertation, Prague/Czech Republic).
3. Ҳамдамов, Ш. Ж. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ИНТЕНСИВ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛЛАРИНИНГ ЎЗАРО САЛМОҒИНИ АНИҚЛАШ. *Экономика и образование*, (5), 84-88.
4. Matmurodov, R., Khalimova, K., & Abdukodirov, E. (2019). Cardiovascular disorders in parkinsonism depending on the form of the disease. *Journal of the Neurological Sciences*, *405*, 198-199.
5. Rakhimbaeva, G. S., & Akramova, D. T. (2020). Role of Increasing Levels of The Hormone Cortisol in Cognitive Impairment in Parkinson’s Disease: Vascular Parkinsonism. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(6).
6. Akramova, D. (2017). Dependence of the indicators of cognitive potential of

p300 to the forms of epilepsy. *Journal of the Neurological Sciences*, *381*, 333.
7. Khamdamov, S. J., Akramova, D., Kuranbaeva, S., Shamsieva, U., Musaeva, Y., & Kalandarova, S. (2022). *The role of vascular factors in Parkinson's disease and vascular parkinsonism* (Doctoral dissertation, Prague/Czech Republic).
8. Matmurodov, R., Khalimova, K., & Abdukodirov, E. (2019). Cardiovascular disorders in parkinsonism depending on the form of the disease. *Journal of the Neurological Sciences*, *405*, 198-199.
9. Akramova, D., Rakhimbayeva, G., & Narzikulova, M. (2018, January). Clinical research-lipid spectrum of blood serum at ischemic stroke against the methabolic syndrome. In *CEREBROVASCULAR DISEASES* (Vol. 45, pp. 376-376). ALLSCHWILERSTRASSE 10, CH-4009 BASEL, SWITZERLAND: KARGER.
10. Халимова, Х. М., Рашидова, Н. С., & Холмуратова, Б. Н. (2021). ГЕНДЕРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПЕРВИЧНЫХ ГОЛОВНЫХ БОЛЕЙ. *ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ*, *6*(1).
11. Rashidova, N., Khalimova, K., Rakhimbaeva, G., & Holmuratova, B. (2018, December). Comparative Characteristic of Glial Fibrillary Acidic Protein in Women with Genuine and Idiopathic Epilepsy. In *EPILEPSIA* (Vol. 59, pp. S88-S89). 111 RIVER ST, HOBOKEN 07030-5774, NJ USA: WILEY.
12. Халимова, Х. М., Рашидова, Н. С., & Холмуратова, Б. Н. (2021). ГЕНДЕРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПЕРВИЧНЫХ ГОЛОВНЫХ БОЛЕЙ. *ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ*, *6*(1).
13. Халимова, Х. М., Рашидова, Н. С., & Холмуратова, Б. Н. (2021). ГЕНДЕРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПЕРВИЧНЫХ ГОЛОВНЫХ БОЛЕЙ. *ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ*, *6*(1).
14. Муродов, М. М., & Чулиев, Л. Э. (2021, October). Турли Объектлар Асосида, Яъни Пахта Тозалаш Корхоналарининг Толали Чиқиндилари Ва Павлония Ҳамда Банан Целлюлозаларидан Е-466 Олиш Технологияси Ва Унинг Физик-Кимёвий, Механик-Структуравий Хоссалари. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 316-320).
15. Murodov, M. M., Yusupova, N. F., Urabjanova, S. I., Turdibaeva, N., & Siddikov, M. A. (2021). Obtaining a Pac From the Cellulose of Plants of Sunflower, Safflower and Waste From the Textile Industry. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, *2*(1), 13-15.
16. Xolmatov, B. X. (2023). MARKAZIY OSIYODA "XALQ DIPLOMATIYASI" NING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1), 865-874.
17. Samadov, A. U., Nosirov, N. I., & Umirzoqov, A. A. (2022). OVERVIEW OF THE CONCEPTS OF GOLD RECOVERY FROM STALE TAILINGS OF A GOLD RECOVERY PLANT. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(1), 3-8.
18. Nasirov, U., Umirzoqov, A., & Fathiddinov, A. (2021). ANALYSIS OF THE MODERN DEVELOPMENT OF MINING AND PROCESSING COMPLEXES IN UZBEKISTAN. *Збірник наукових праць ΛΌГОΣ*.
19. Usmanovich, S. A., Ikhtiyorovich, N. N., & Abdurashidovich, U. A. (2022). Processing of Layout Tails of Gold-

Extracting Plants. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, *3*(1), 7-13.

20. Murodov, M. M., Yusupova, N. F., Urabjanova, S. I., Turdibaeva, N., & Siddikov, M. A. (2021). Obtaining a Pac From the Cellulose of Plants of Sunflower, Safflower and Waste From the Textile Industry. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, *2*(1), 13-15.

21. Муродов, М. М., & Чулиев, Л. Э. (2021, October). Турли Объектлар Асосида, Яъни Пахта Тозалаш Корхоналарининг Толали Чиқиндилари Ва Павлония Ҳамда Банан Целлюлозаларидан Е-466 Олиш Технологияси Ва Унинг Физик-Кимёвий, Механик-Структуравий Хоссалари. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 316-320).